

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining  
Q A R O R I2024-YILGI NAVRO‘Z UMUMXALQ BAYRAMIGA  
TAYYORGARLIK KO‘RISH VA UNI O‘TKAZISH TO‘G‘RISIDA

Ona zamin va tabiatga mehr-muhabbat, saxovat va muruvvat, bunyodkorlik va olijanoblik kabi xalqimizga xos ezgu fazilatlar eng qadimiy bayramimiz bo‘lgan Navro‘z timsolida asrlar davomida ulug‘lanib, sayqal topib kelmoqda.

Ayniqsa, bugun, jamiyatimizda inson qadri yuksalib, bebaho boyligimiz — yerimiz, suvimiz va tabiatimizga, shu boradagi necha ming yillik an‘analimizga e‘tibor kuchayib borayotgan Yangi O‘zbekiston sharoitida bu bayramning hayotimizdagi o‘rni va ahamiyati yanada ortib bormoqda.

Dunyoda murakkab vaziyat hukm surayotgan hozirgi tahlikali davrda Navro‘zning buyuk insonparvarlik mohiyati, o‘lmas g‘oyalari, odamzotni tinchlik va do‘stlikni qadrlab, o‘zaro ahillik va hamjihatlikda yashashga, hayotni yanada go‘zal va obod qilishga undaydigan bunyodkorlik ruhi va falsafasi yer yuzidagi turli xalqlarning olijanob intilishlariga ham g‘oyat uyg‘un va hamohangdir.

Ana shunday noyob fazilatlari bilan bugun ham ezgulik va taraqqiyotga xizmat qilayotgan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan xalqaro bayram sifatida e‘tirof etilgan Navro‘zi olamning beqiyos ahamiyatini hisobga olib hamda ushbu ayyomni yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan o‘zgarish va yangilanishlarga mos holda, har tomonlama yuksak saviyada o‘tkazish maqsadida:

1. 2024-yilgi Navro‘z umumxalq bayrami mamlakatimizda **“Olam nurga to‘lsin sen bilan, Navro‘zi”** degan bosh g‘oya asosida umumxalq sayillari shaklida ko‘ra tarkibi ruh va yuqori darajada keng nishonlansin.

2. 2024-yilgi Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha **tashkiliy qo‘mita** (keyingi o‘rinlarda — Tashkiliy qo‘mita) tuzilsin hamda uning tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Tashkiliy qo‘mita (A.Aripov) **bir hafta muddatda** Toshkent shahri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar markazlari, barcha shahar va tumanlar, qishloq va ovullarda Navro‘z umumxalq bayramini munosib nishonlash bo‘yicha **tashkiliy-amaliy, madaniy-ma‘naviy hamda**

**targ‘ibot tadbirlari dasturini** tasdiqlasin, shuningdek, uning amalga oshirilishini ta‘minlasin.

3. Joylarda Navro‘z umumxalq bayramining barcha tadbirlarini milliy qadriyat va an‘analimiz hamda zamonaviy tajribalar asosida yuqori saviyada, ommaviy sayillar shaklida tashkil etish, ularda xalqimizning faol ishtirokini ta‘minlash maqsadida quyidagi masalalarga alohida e‘tibor qaratilsin:

bayram tadbirlarini bahor ayyomida borliqning uyg‘onishi, inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik, ona zaminga mehr va e‘tiborni aks ettiradigan, yurtdoshlarimizni bugungi tinch va osuda hayotimizni qadrlab, shukronalik tuyg‘usi bilan yashashga undaydigan ma‘no-mazmun bilan ta‘sirchan usullarda o‘tkazish;

mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub demokratik islohotlar, xalqimizning kundalik hayoti, ongi va dunyoqarashida yuz berayotgan ijobiy o‘zgarishlar Navro‘zning azaliy qadriyat va an‘analariga hamohang ekanini namoyon etish;

Toshkent shahridagi “Yangi O‘zbekiston” majmuasida alohida dastur asosida xalq sayillari tashkil etish;

bu yilgi Navro‘z bayrami muqaddas Ramazon oyida nishonlanishini inobatga olib, keksa avlod vakillarini, xususan, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat fronti faxriylarini har tomonlama e‘zozlash, “Mehribonlik”, “Saxovat” va “Muruvvat” uylarida yashayotgan shaxslar, ijtimoiy himoya daftarlarga kiritilgan hamda ko‘mak muhtoj insonlarning holidan xabar olish, ular uchun dasturxonlar tashkil etish hamda turli xayriya tadbirlarini amalga oshirish;

“Yashil makon” umummilliy loyihasida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish, Navro‘z bayrami arafasida respublikamizning barcha hududlarida, ko‘cha, mahalla, tuman va shaharlarda obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlariga qaratilgan umumxalq hasharlarini o‘tkazish;

jamiyatimizda hukm surayotgan millatlararo do‘stlik va totuvlik muhitini mustahkamlashga qaratilgan loyiha va aksiyalar

uyushtirish, yurtimizda istiqomat qilayotgan turli millat va elat vakillarining Navro‘z bayramining ruhi va falsafasiga uyg‘un bo‘lgan urf-odat, an‘ana va qadriyatlarini keng namoyish etish;

bayram tadbirlari davomida hunarmandchilik ko‘rgazmalari, milliy sport turlari bo‘yicha musobaqalarni o‘tkazish, kitob ko‘rgazmalari, arzonlashtirilgan qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari yarmakalari, ko‘chma savdo do‘konlarini tashkil etish, ko‘klam taomlarini tayyorlash hamda ularning ko‘rgazma-savdolari va tanlovlarini uyushtirish;

barcha shahar va qishloqlarda o‘tkaziladigan bayram tantanalarida, ommaviy axborot vositalarida Navro‘z bayramining tarixi, har bir hududdagi uni nishonlash bilan bog‘liq urf-odat va an‘analarni keng yoritish.

4. Madaniyat vazirligi (O.Nazarbekov): Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi (O.Hasanov), Yozuvchilar uyushmasi (S.Saidov) bilan birgalikda **bir hafta muddatda** Toshkent shahrida Navro‘z bayramiga bag‘ishlab o‘tkaziladigan teatrlashtirilgan konsert tomoshasining dasturi va ssenariysini ishlab chiqsin;

mazkur konsert tomoshasini tajribali ssenarist va rejissyorlar, kompozitor va bastakorlar, baletmeysterlar, sahna rassomlari, iste‘dodli yosh ijrochilar, folklor san‘ati vakillari bilan birgalikda, yuqori badiiy saviyada tayyorlash choralarini ko‘rsin.

5. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari:

a) **bir hafta muddatda** quyidagilarni nazarda tutuvchi Navro‘z umumxalq sayillarini o‘tkazish bo‘yicha **hududiy chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqsin va tasdiqlasin:**

umumxalq sayillari uyushtiriladigan

O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidenti

SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,  
2024-yil 4-mart

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining  
Q A R O R IZULFIYA NOMIDAGI DAVLAT  
MUKOFOTI BILAN TAQDIRLASH  
TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda xotin-qizlarni e‘zozlash, ularning ezgu orzu-intilishlarini qo‘llab-quvvatlash hamda o‘zining iqtidori, muhim g‘oya va tashabbuslari, ibratli amaliy ishlari va erishgan yutuqlari bilan yoshlarga o‘rnak bo‘lib kelayotgan, ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizdagi o‘zgarishlar jarayonida faol ishtirok etib, Vatanimiz ravnaqi yo‘lida bor kuch-g‘ayrati, zamonaviy bilim va malakasi, ma‘naviy-intellektual salohiyatini namoyon etayotgan qizlarimizni munosib rag‘batlantirish maqsadida:

1. Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi huzuridagi Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti komissiyasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining iqtidorli qizlarini a‘lo xulqi, noyob iste‘dodi, zukkoligi, tashabbuskorligi, o‘qishdagi muvaffaqiyatlari hamda ta‘lim, fan, adabiyot, san‘at, madaniyat, sport sohalarida va jamoatchilik faoliyatida erishgan alohida yutuqlari uchun Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlash to‘g‘risidagi takliflari ilovadagi ro‘yxatga muvofiq ma‘qullansin.

O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidenti

SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,  
2024-yil 4-mart

Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlanganlar ro‘yxati 2-betda.

## Dolzarb mavzu

ELEKTROMOBILLAR  
KELAJAK  
TRANSPORTI

Joriy qish fasli oxirida havo sovil, bir necha kun uzluksiz qor yog‘di. Qor zabti hali sezilib turibdi. Lekin shunday sharoitda ham Toshkent shahri fevral oyida AQAir reytingida havosi ifloslanishi darajasi bo‘yicha dunyo shaharlari orasida birinchi o‘rinni egalladi va haligacha yuqori o‘ntalik ro‘yxatida turibdi. Bu holat doimiy tus olayotgani yanada achinarli.

Mamlakatimizda sovuq kunlar boshlanishi bilan elektr energiyasi, tabiiy gaz, benzin ta‘minotida uzilishlar odatiy tus olgan. Ayniqsa, avtomobillarga gaz quyish shoxobchalarida kuzatilayotgan turli noxush holatlar masalaga jiddiy e‘tibor qaratish zaruratini eslatmoqda.

Albatta, bu borada mutasaddilar, tegishli vazirlik va idoralar o‘z vakolatlari doirasida choralar ko‘rishga harakat qilmoqda. Dastlab buning sabablari o‘rganilib, xulosalar tayyorlandi. Havo ifloslanishi xususida tanqidlar ko‘paygani ortidan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi o‘z xulosalarini berdi. Unda poytaxtda atmosfera havosi ifloslanishiga asosiy sabablar sirasiga avtotransport ko‘payishi va foydalanilayotgan yonilg‘i sifati kiritildi.

Vazirlik ma‘lumotida keltirilishicha, yurtimizda avtomobillar soni 2023-yilda 4,6 million donaga yetgan. Bugungi kunda Toshkent shahrida bir kunda o‘rtacha 730 mingta avtotransport vositasi harakatlanib, qo‘shimcha ravishda hududlardan 160 mingdan 300 minggacha kirib kelmoqda.

Shaharlarda transport va piyodalar oqimi kesishmalari soni kamaytirilmagan, magistrallardagi yuklama darajasi pasaytirilmagan, transport oqimi tarkibi, tezlik rejimi tartibi optimallashtirilmagan, yo‘l harakati to‘g‘ri tashkil etilmagan. Natijada Toshkent shahrida tirbandlik ko‘p kuzatilmog‘da. Tirbandlikda turgan avtomobil esa harakatdagsiga nisbatan atmosfera ko‘proq tashlama chiqaradi.

Ma‘lumotda, shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlari va aholining energiya resurslariga talabi ortishi natijasida uglevodordlardan, jumladan, ko‘mir yoqilg‘isidan foydalanish hajmi ortayotgani, kuz-qish mavsumida aholiga markazlashgan issiqlik yetkazib berish uchun mavjud issiqlik ta‘minoti korxonalarida qo‘shimcha yonilg‘i sifatida mazut ishlatilayotgani ham (birgina Toshkent shahridagi mavjud 6 ta issiqlik markazining 9 ta qozonxonasida dekabr oyida 3 ming tonna mazutdan foydalanilgan) havoning keskin ifloslanishiga olib kelayotgani qayd etildi.

Davomi 4-betda

ISHONCH, DO‘STLIK VA  
FAROVONLIK RAMZI

## Taraqqiyot yo‘li

Yangi va yuksak marralarni zabt etishdan oldin doim yangi yo‘llarni ochish kerak bo‘ladi. Yo‘l — bu chora-tadbirlar rejası, huquqiy asos demak. Yurtimizda keyingi yillardagi islohotlar ana shunday aniq reja asosida kechmoqda. Natijada xalqni rozi qilish, ishonchini qozonishdek saodatga erishyapmiz. Xorazm va Qoraqalpog‘iston oraliq‘idagi masofani yaqinlashtirgan yangi ko‘prik ham keyingi yillardagi ijobiy o‘zgarishlarning tom ma‘nodagi ifodasidir. Muhim strategik inshoot nafaqat masofani, balki qalblarni ham bir-biriga yanada yaqinlashtirdi. Ishonch, do‘stlik va farovonlik ramziga aylandi.



Davlatimiz rahbari dastlab ushbu ko‘prik loyihasi bilan 2020-yilning dekabrda Xorazmga tashrif chog‘ida tanishgan, ko‘p o‘tmay, hozirgi muhtasham ko‘prikning qurilishi boshlab yuborilgan edi. Kechagidek esimda, 2021-yil Prezidentimiz Qoraqal-

pog‘istondan Xorazm viloyatiga saylovchilar bilan uchrashuvga ketayotib Amudaryoda qurilayotgan ko‘prikni ko‘zdan kechirgandi. O‘shanda ham davlatimiz rahbari ko‘prik qurish bilan bog‘liq ishlarni jadallashtirish borasida topshiriqlar bergan edi.

Natijada qisqa fursatda Amudaryo ustida 413 metr uzunlikdagi, 174 million dollarlik loyiha doirasida ko‘prik hamda 85 kilometr temir yo‘l barpo etildi.

Davomi 3-betda





O'zbekiston Respublikasi Prezidentining  
2024-yil 4-martdagi PQ-111-son qaroriga ilova

## Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlanganlar RO'YXATI

**Xudaybergenova Gulshinar Jangabayevna** — Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahridagi 1-bolalar musiqa va san'at maktabining baxshichilik sinfi o'qituvchisi  
**Kokanova Nursuliu Jenisbay qizi** — Qoraqalpog' davlat universitetining chet tillari fakulteti filologiya yo'nalishi 4-bosqich talabasi

**Suleymanova O'g'ilxon Abdurazok qizi** — O'zbek milliy maqom san'ati markazining Andijon viloyati bo'limi artist-maqomchisi  
**Jonibekova Xusniyobonu Ergashvoy qizi** — Andijon viloyati Xo'jaobod tumani "Gara guri" mahalla fuqarolar yig'inidagi yoshlar yetakchisi

**Pulatova Mohichexra Temirovna** — Buxoro davlat universitetining qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjima-shunoslik ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranti

**To'xtamishova Gulnora Mels qizi** — Buxoro viloyati Romitan tumanidagi 2-kash-hunar maktabining informatika fani o'qituvchisi

**Chilmurzayeva Maftuna Abdumannon qizi** — O'zbekiston Milliy universitetining qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjima-shunoslik ixtisosligi bo'yicha mustaqil tadqiqotchisi (Jizzax viloyati)

**Xojiboqiyeva Niginaxon O'tkir qizi** — O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali psixologiya fakulteti iqtisodiyot yo'nalishi 3-bosqich talabasi

**Hakimova Shahzoda Bahridin qizi** — Toshkent tibbiyot akademiyasining davolash fakulteti 1-bosqich talabasi (Qashqadaryo viloyati)

**Mirzayorova Sevara Ubaydullayevna** — Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining sanoat issiqlik energetikasi ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranti

**Eshpo'latova Mohira O'tkirjon qizi** — Toshkent shahri Shayxontohur tumanidagi 34-umumiy o'rta ta'lim maktabining o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi (Navoiy viloyati)  
**Omonboyeva Meruyert Erkin qizi** — Navoiy viloyati Nurota tumanidagi "Qosim-qaji-Meruyert" mas'uliyati cheklangan jamiyati direktori

**Xakimova Dilshoda Oybek qizi** — O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining ingliz filologiyasi fakulteti 4-bosqich talabasi (Namangan viloyati)

**Ahmadjonova Muhayyojon Akramjon qizi** — Toshkent tibbiyot akademiyasining davolash fakulteti 6-bosqich talabasi (Namangan viloyati)

**Savadyan Vilana Arsenovna** — Samarqand viloyati Samarqand shahridagi 51-ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi, badiiy gimnastika bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosi

**Yunusova Nargiza Tuychimurod qizi** — Samarqand viloyati Tayloq tumani "Qo'shchigor" gazetasi muxbiri

**Akramova Sarvinov Abduvohid qizi** — Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining sharq filologiyasi va tarjima-shunoslik fakulteti 3-bosqich talabasi (Sirdaryo viloyati)

**Irisqulova Kamola Normat qizi** — Toshkent davlat transport universitetining avtomobil yo'llarini loyihalash va qurish mutaxassisligi bo'yicha 1-bosqich magistranti (Sirdaryo viloyati)

**Ergashova Sadoqat Eshmamat qizi** — Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining o'zbek adabiyoti ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranti (Surxondaryo viloyati)

**Suyunova Shamsiqamar Iskandarovna** — Ro'zi Choriyev nomidagi Surxondaryo viloyati ixtisoslashtirilgan san'at maktab-internatining 11-sinf o'quvchisi

**Tursunboyeva Fotima Botir qizi** — Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatri opera ijrochisi (Toshkent viloyati)

**Xaqnazarova Umida Ural qizi** — Toshkent davlat agrar universitetining ipakchilik mutaxassisligi bo'yicha 2-bosqich magistranti

**Abdusattorova Ziyodaxon Dilshodjon qizi** — Farg'ona viloyati yakkakurash sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabining kamondan otish bo'yicha sportchisi

**Yo'ldasheva Muxayyoxon Alisher qizi** — Farg'ona politexnika institutining qurilish fakulteti 4-bosqich talabasi

**Shomurotova Zulfiya Akmaljon qizi** — Xorazm viloyati Xiva shahridagi Prezident maktabining 11-sinf o'quvchisi

**Sapayeva Risolat Rustam qizi** — O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining Urganch filiali xoreografiya fakulteti 2-bosqich talabasi

**Tosheva Marjana Rustam qizi** — Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutining vokal va cholg'u ijrochiligi pedagoglarini tayyorlash kafedrasida o'qituvchisi

**Trashkova Yelizaveta Dmitriyevna** — O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining xoreografiya san'ati fakulteti 1-bosqich talabasi

## Inson qadri uchun

Xasta darddan forig' bo'lishni, to'shakka mixlangan bemor yurishni, yurgan odam esa, tabiiyki, mehnat qilishni, orzularini ro'yobga chiqarishni xohlaydi. Angor tumanidagi Qorabog' mahallasida yashovchi Hasan Qodirov esini tanibdik, ko'p narsani emas, shunchaki yurishni orzu qiladi. Maktabga borishni, do'stlar bilan suhbatlashishni, kutubxonada kitoblar mutolaa qilishni istardi.

Odam bolasi borki, ko'nikuvchan. Taqdiriga ko'ndi, ammo harakattan, izlanishdan, o'z bilimi va salohiyatini oshirishdan to'xtamadi.

Yaqinda ikki-uch chog'li odam mahalla oralay, Xosiyat Bo'nayevaning xonadonini izlayotganini aytdi. Manzilni ko'rsatishgach, eshikni taqillatishdi.

Hasan darvoza eshigi taqillayotganini eshitdi. "Qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug'lar yo'qlab kelishgandir". Qani endi borib o'zi eshikni ocholsa. Uyda hozir hech kim yo'q, o'zi to'shakka mixlangan. "Kiravering!", dedi ovozini balandlatishga urinib.

Hovliga bir necha kishi kirib kelib, o'zlarini Angor tumanidagi "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi xodimlari deb tanishtirdi. Tuman har bir xonadon xatlovdan o'tkazilganini, buning natijasi o'laroq, Hasan singari imkoniyati cheklangan fuqarolarga yaqindan ko'mak berilayotganini bildirdi hamda hovliga elektron aravacha olib kirishdi. Hasanni unga o'tqazishdi, qanday harakatlanishni o'rgatishdi. Tegishli hujjatga imzo qo'ydirib, so'ng yo'llariga ravona bo'lishdi.

Tabiiyki, Hasan Qodirov juda mamnun bo'ldi. Tuman markazidan qaytayotgan onasiga bu voqeani aytib, xursand qilishga shoshildi. Hayajon bilan kuta boshladi.

Nihoyat eshik ketma-ket tortildi, so'ng taqillay boshladi.

— Hasanjon! Eshikni kim yopib qo'ydi, ochiq qoldirgandim-ku? — Xosiyat opaning ko'ngli g'ashlana boshladi, xavotiri ortdi. — Kim bor?

— Hozir, onajon, hozir, o'zim ochaman! — Hasan aravasini g'izillatganicha eshik tomon yurdi.



kasb-hunar egallashni orzu qilardi. Mana endi bemalol ko'chaga chiqib, tengqurlari bilan suhbatlashib keladi. Maktabga ham bemalol boryapti, hatto qo'shimcha darslarga, to'garaklarga qatnayapti.

Angor tumanidagi 26-maktabning 11-sinfida tahsil olayotgan Hasan sinfidagi eng tirishqoq o'quvchilardan.

— U ko'p kitob o'qiydi. Avvallari — yakka tartibda tahsil olayotgan paytlarida ham intiluvchan edi, — deydi sinf rahbari

Dilbar Fayziyeva. — Bo'sh vaqtlarida tuman markazidagi "Ishga marhamat" monomarkaziga boradi. "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi xodimlari ham uning hunar o'rganishiga imkon yaratib bermoqda. Elektrotexnikalarni ta'mirlashni o'rgan-yapti. Shu kasbni egallab, yaxshi mutaxassis bo'lishni orzu qiladi.

Oramizda shunday insonlar borki, taqdir ularga katta sinov bergan bo'lsa-da, imkonsizligini bila turib, imkon qidiradi. Umid g'unchalarining gullashini kutadi. Orzulari ushalishiga ishonchi bor. Maqsadni aniq qo'yib, harakat qiladi. Imkoniyati cheklangani intilishi va iqtidorini namoyon etishiga aslo to'sqinlik qilolmaydi.

Prezidentimizning 2023-yil 1-iyundagi "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga asosan, joylarda aholini manzilli himoya qilishning asosiy yo'nalishlari belgilab olingan. Shunga asosan, endilikda og'ir hayotiy ahvolga tushib qolgan aholiga individual yondashuvga muvofiq ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish yo'lga qo'yilayotir.

"Inson qanday qiyinchiliklarga duch kelmasin, faqat olg'a intilishiga maqsadlariga erisha oladi". Bu — Qumqo'rg'on tumani Bog'oro mahallasida yashovchi Zafar Xo'jamqulovning hayotdagi shiori.

Uning ham imkoniyati cheklangan, mustaqil harakatlanma olmaydi. Uch farzandning otasi. Vaqtida bu kabi imkoniyatlar bo'lmagan edi. Keyingi yillarda davlat tomonidan berilgan e'tibor uni ruhlantirdi, olg'a intilishga undadi. U ayni paytda Qumqo'rg'on tumanidagi agrosanoat texnikumining 1-bosqich talabasi.



Texnikum uch chaqirim uzoqlikda joylashgan. Uch oyoqli velosipedda texnikumgacha borib kelish uchun uch soatlar vaqt ketardi. Bu, ayniqsa, qishning qahratoni va saratonda yanada qiyinchilik tug'dirardi.

Qumqo'rg'on tumani "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi tomonidan Zafar Xo'jamqulovga ham elektron aravacha berildi.

— Tumanidagi "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi xodimlari menga o'z mutaxassisligim bo'yicha ish topib berishni ham aytdi. Quvondim, ochig'i, davlat bergan nafaqaga qarab o'tirishim kerak emas.

Oilamning yaxshi yashashi uchun harakatta bo'lishim kerakligini angladim. Kelajakda farzandlarimning faxr bilan veterinariya bo'yicha tumanidagi zo'r mutaxassis bolasiman, deyshlarni orzu qilaman va buning uchun qo'lmdan kelgancha harakat qilyapman, — deydi u.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi Surxondaryo viloyati boshqarmasi tomonidan Hasan Qodirov va Zafar Xo'jamqulov singari yana 63 nafar imkoniyati cheklangan fuqaroga elektron aravachalar topshirildi.

Prezidentimizning 2023-yil 1-iyundagi "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga asosan, joylarda aholini manzilli himoya qilishning asosiy yo'nalishlari belgilab olingan. Shunga asosan, endilikda og'ir hayotiy ahvolga tushib qolgan aholiga individual yondashuvga muvofiq ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish yo'lga qo'yilayotir. Markazlar har bir xonadon ahvolini yaqindan o'rganib, oilalardagi haqiqiy holatni hamda ularning ijtimoiy xizmatlar va yordamga ehtiyojini aniqlash, oilalarning ijtimoiy pasportini shakllantirish ishlarini amalga oshirmoqda.

Tajriba tariqasida "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari Surxondaryo viloyatida dastlab Uzun tumanida 2023-yil oktabr oyida,

## Yuksalish pallas

# YOSH INNOVATORNING LOYIHASI

"TECHNO WAYS" TEXNOLOGIK RIVOJLANISH  
MARAFONIDA G'OLIBLIKNI QO'LGA KIRITDI

Elektr energiyasi ta'minotida transformatorning yuzluksiz va xavfsiz ishlashi muhim. Biroq transformatorda yuzaga keladigan doimiy kuchlanish tufayli yonish yoki portlab ketish xavfi mavjud. Yosh innovator Shavkatjon Xudoberdiyevning transformatori avtomatlashtirilgan sovitish tizimi bu kabi ko'ngilsiz holatlarning oldini oladi.

— Loyiha g'oyasi 2018-yil, universitetda o'qib yurgan kezlirim paydo bo'lgandi. Asta-sekin tajribalar bilan juda ko'p sinovdan o'tkazdim. Bu bo'yicha xorijiy tajribalarni, ixtirolarni o'rgandim, ma'lumot va yangiliklar izladim. Mazkur g'oya yangiligini bilgach, uni amalga oshirishga qaror qildim, — deydi Shavkatjon Xudoberdiyev. — Yoshlar akademiyasi tomonidan tashkil etilgan "Bo'lajak olim" tanlovida qatnashib, transformatori yong'in va portlashdan himoyalovchi tizimni takomillashtirish uchun 75 million so'm pul mukofotini qo'lga kiritdim. Bu rag'bat loyihaga yanada jiddiy kirishishga undadi.

Ushbu g'oya "Techno ways" texnologik rivojlanish marafoni respublika bosqichida ham g'oliblikni qo'lga kiritdi va loyiha egasiga 15 million so'm keltirdi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Yoshlar akademiyasi a'zoliciga qabul qilinishi Shavkatjonga faoliyatini yanada takomillashtirishga turki berdi. Farg'ona viloyatida tashabbuskor yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2023-yil o'tkazilgan "Biznesga birinchi qadam" startap g'oyalari tanlovida g'olib bo'lib, 60 million so'm bilan taqdirlandi. Toshkent shahri Uchtepa tumanida o'tkazilgan "Yoshlarning innovatsion g'oyalari" ko'rik-tanlovida ham 1-o'ringa loyiq ko'ridi.

Shavkatjon 2021-yili loyihani mahalliy sharoitda joriy qilishga ruxsat oldi. Sovitish tizimi ilk bor buyurtma asosida Farg'ona viloyatining Yozyovon tumanidagi paxtani qayta ishlash korxonasiga o'rnatildi. So'ng Oltiariq tumanidan buyurtma tushdi. Shu tariqa loyiha yosh innovatorga foysda keltira boshladi.

U loyihani yanada mukammallashtirish uchun harakatni to'xtatmadi. O'tgan yili Xitoy



— O'zbekiston qo'shma korxonasidan tushgan taklif innovatorga korxonada ish boshlash va loyihani mukammal himoya vositasiga aylantirish uchun tajribalar qilish imkoniyatini berdi. Shu tarzda loyiha takomiliga yetdi.

Unga xorijiy davlatlarda katta qiziqish bildirilayotir. Hatto loyihani sotish takliflari tusha boshladi. Shavkatjon bu takliflarni rad etmoqchi. "Dastlab mahsulotni faqat O'zbekistonda ishlab chiqarishni va xorijga eksport qilishni o'ylagandim. Takror-takror takliflar tushavergach, konstruksiya chizmalarini berkitib, taqdimot qila boshladik. Bu loyiha haligacha o'z yangiligini yo'qotgani yo'q", deydi yosh olim.

Transformator uchun avtomatlashtirilgan sovitsish tizimining vazifalari quyidagilar:

— transformatorlarda portlash, yong'in hamda tarmoqdagi yuklamalar kabilarini masofadan aniqlab boshqarish, transformator haroratini nazorat qilish va sovitsish;

— dielektrik sovitsish moyi qizib ketishini yuzluksiz nazorat qilish va oldini olish orqali

transformator yuqori quvvatda uzoq vaqt ishlashini ta'minlash;

— tarmoqlardagi yuklamalarni, to'rtta fider va uchta fazaning to'liq kuchlanishini masofadan boshqarish, nazorat qilish, o'chirib yoqish;

— transformatorlardagi barcha o'zgarishlarni xotira blokiga yozib olish va saqlash.

Qurilma asosiy uch qism — avtomatlashgan sovitsish tizimi, masofadan boshqaruvchi va nazorat qiluvchi hamda barcha holatlar bo'yicha xotira blokidan tashkil topgan.

Shavkatjon Xudoberdiyev 2022-yil 30-iyunda Yoshlar kuni munosabati bilan tashkil etilgan uchrashuvda innovatsion loyihasini davlatimiz rahbariga taqdim qilgandi.

2023-yili unga transformatorlarni avtomatlashtirilgan boshqarish va sovitsish tizimi bilan himoyalash qurilmasi uchun patent berildi.

Yosh olimning muvaffaqiyatlari bu bilan tugamaydi. U 2023-yili Turkiyaning Istanbul shahrida o'tkazilgan "Texnofest"da O'zbekiston delegatsiyasi safida qatnashdi, MDH miqyosida tashkil etilgan "Yosh olim" tanlovida "Eng yaxshi ilmiy-innovatsion yechim" yo'nalishi bo'yicha 1-o'rin sohibi bo'ldi. Qozog'istonda o'tkazilgan "Yilning eng yosh olimi" tanlovida ham 1-o'rinni egalladi.

2022-2024-yillarda 40 dan ortiq ilmiy maqolasi, 20 dan ziyod tezi respublika va xorijiy jumalarda chop etilgan yosh olim xalqaro va respublika miqyosidagi konferensiyalarda muntazam qatnashib keladi.

Bugun Shavkatjon Xudoberdiyev Farg'ona viloyatining Yozyovon tumanidagi "NUR SHAVKAT" transformator ishlab chiqarish xususiy korxonasi rahbaridir. Bu bilan 15 dan ortiq ish o'rni yaratgan. O'z rejalarini bilan o'troqlashgan olim bunday deydi: "Kelajakda yangicha tizimda ishlovchi transformator zavodini qurish va mahsulotlarni butun dunyo bo'ylab eksport qilish, bular tufayli iste'molchilarga uzluksiz elektr energiyasi yetib borishida vositachi bo'lish istagim va maqsadlarim bor".

Samariddin YO'LDOSHOV,  
O'ZJOKU talabasi

keyinchalik Termiz shahri va Angor tumanida ish boshladi.

Uzun tumanidagi 59 ta MFYda 20 nafar, Termiz shahridagi 37 ta MFYda 18 nafar ijtimoiy xodim faoliyati yo'lga qo'yilgan. Angor tumanida esa 36 mahallaga markaz tomonidan 15 xodim xizmat ko'rsatib kelmoqda.

— "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi hamda mahallalardagi ijtimoiy xodimlar tomonidan bugungi kunda 49 turdagi ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatiladi. Endi hududimizdagi o'zgalar parvarishiga muhtoj, yolg'iz yashovchi keksalar va nogironlari bo'lgan shaxslarga alohida e'tibor qaratiladi. Buning uchun 1 nafar ijtimoiy assistent birkirtilgan, — deydi Angor tumanidagi "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi rahbari Ilhom Mustaramov.

Joriy yilning 20-fevral kuni davlatimiz rahbari raisligida ijtimoiy himoya sohasidagi xizmatlar qamrovini yanada kengaytirish bo'yicha ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor o'tkazildi. Uda Prezidentimiz odamlarga umid berish, hayotini yaxshilash, band bo'lishiga ko'maklashish eng oxirgi o'ringa tushib qolganini, endilikda mahallalardagi "yettiriklik" uchun ijtimoiy xizmatlar bo'yicha yagona savolnomalar joriy qilinishi, mahalladagi barcha ijtimoiy xizmatlarni bosqichma-bosqich ijtimoiy xizmat ko'rsatish shartnomasi orqali taqdim etish yo'lga qo'yilishini bildirdi. Videoselektor yig'ilishida, shuningdek, ayrim vazirlik, idoralar va viloyat hokimliklarida nogironlari bo'lgan birotta odam ishga olinmagani tanqid qilinib, nogironlari bo'lgan shaxslarni ko'lab-quvvatlash masalalari muhokama qilindi. Nogironlari bo'lgan shaxslarni o'qitish, ishga joylashtirish va sportga jalb qilish bo'yicha milliy tizim yaratilishi aytiladi. Shuningdek, nogironlari bor sayyohlar uchun haftalik va oylik maxsus chegirmalar berish grafigi tasdiqlanishi, ularga qulay infratuzilma yaratish bo'yicha "o'tsiqsiz turizm" dasturi tasdiqlanishi qayd etildi.

Endi angorlik Hasan Qodirov va qumqo'rg'onlik Zafar Xo'jamqulov singari o'nlab, yuzlab yurtdoshlarimizning taqdiri, hayotiga e'tibor yanada kuchayadi. Buning natijasi o'laroq, odamlarda shukronalik hissi uyg'onadi. Shukronasi bor elning esa buguni nuraftosh, etkang kuni yanada obod va yorug' bo'lajak.

Sarvar TO'RAYEV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri





www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz

## Taraqqiyot yo‘li



**Qo‘ng‘iroitboy SHARIPOV,**  
*oliy ta‘lim, fan va  
innovatsiyalar vaziri*

## Boshlanishi 1-betda

Prezidentimiz joriy yil 29-fevral kuni Xorazm viloyatiga tashrifini Amudaryo tumanidagi yangi ko‘priknig ochilish marosimida ishtirok etishdan boshladi.

Xorazmlik va qoraqalpoqliklar uzoq yillar kutgan bunday ravon loyiha asrlar osha xizmat qilish barobarida xalqimizning savdo-sotiq, qishloq xo‘jaligi, qo‘yingki, barcha sohalardagi hayotida yuqori samara beradi. Jumladan, hozirgacha ijtimoiy aloqalari yaqin, chambarchas bog‘liq Xorazm — Qoraqalpog‘iston o‘rtasidagi masofa ko‘priki qurilmaganida aylanib o‘tish hisobiga 240 kilometrga, oraliq vaqt esa 6 soatga teng edi. Endi ko‘priki foydalanishga topshirilishi hisobiga yo‘lovchi va tadbirkorlarning borar manzili masofasi, vaqti ancha tejraladi. Mahalliy yuk tashish hajmi yiliga 12 million tonnadan 25 million tonnaga oshishi kutilmoqda. Tabiiyki, temir yo‘l o‘tgan hududlar doimo rivojlangan. Shu nuqtayi nazardan, endi viloyatga kiritilayotgan investitsiya, ishlab chiqarish va eksport hajmi sezilarli ortadi, xalqaro tranzitlar uchun qulay sharoit yaratilgani bunga zamin bo‘ladi.

Yangi ko‘priki ko‘p yillik muammolarga yechim bo‘lib, bundan oilaviy biznes, tadbirkorlar katta manfaat topadi. Chunki mazkur temir yo‘l tufayli yuk tashish xarajatlari 1 ta vagon uchun 600 ming so‘m arzonlashadi. Ayniqsa, bu yo‘l tabiiy xomashyo xazinalari kam bo‘lgan Xorazmdagi ishbilarmonlar uchun qulay, sanoat va xizmatlar uchun samarali platforma o‘laroq yangi imkoniyatlar yaratadi.

Davlatimiz rahbari temir yo‘lining ochilish marosimida Orolbo‘yi mintaqasi, xususan, Qoraqalpog‘istonni rivojlantirish, avvalo, ekologik inqiroz oqibatlarini yumshatib, murakkab vaziyatda yashayotgan aholiga qulay sharoit yaratish mamlakatimiz taraqqiyoti strategiyasining bosh maqsadlaridan ekanini alohida ta‘kidladi.

Odamlarning uzog‘ini yaqin, og‘irini yengil qilgan ushbu ko‘priknig iqtisodiy jihatlar bilan birga, ijtimoiy ahamiyati ham kattadir. Negaki, ko‘priki qurilgan joy yurtimizning eng chekka hududlaridan biri, shu paytgacha odamlar o‘tgan asrda ishga tushirilgan eski ponton ko‘prikan qatnagan. Yuk ko‘tarish quvvati 10 tonna bo‘lgan eski ko‘prikan yiliga 600 ming tonnaga yaqin yuk olib o‘tilgan, 3 milliondan ortiq aholi qatnagan, 1 millionga yaqin avtotransport vositasi foydalangan. Omonatgina bo‘lib turgan ponton ko‘priki qish faslida katta qiyinchiliklar tug‘dirgani bor gap, ayniqsa, daryoda suv ko‘paygan mahali ikki sohilidagi aholiga nafaqat qiyinchilik, balki suvda cho‘kish ehtimoli bilan bog‘liq xavf solib kelgan.

Endi yangi va zamonaviy ko‘priki hisobiga, avvalo, bunday xavf bartaraf etildi, yurtdoshlarimiz va transport vositalarining erkin va xavfsiz harakatlanishi uchun qulay sharoit yaratildi. Natijada ko‘priki orqali yuk tashish hajmi yiliga 25 million tonnani tashkil etadi. Mintaqalarning rivoji hisobiga iqtisodiy samardorlik yiliga 100 milliard so‘mga

oshadi. Yo‘lining o‘tkazish quvvati 4 barobar oshib, bir kecha-kunduzda 12 ming avtomobil harakatlanishi ta‘minlanadi. Natijada 48 ming yo‘lovchining 2 soat vaqti tejraladi va, asosiysi, daryodan xavfsiz o‘tishi kafolatlanadi.

Ko‘priki bitkazilishi barobarida Shovot-Qorao‘zak bekatalari oralig‘ida 3 ta vokzal qurib foydalanishga topshirilgani ham odamlarimiz uchun koni foydadir. Xususan, yangi temir yo‘l orqali Qozog‘iston va Rossiyaga yangi yo‘nalishlar yo‘lga qo‘yilishi, uning natijasida yana 50 ming yangi ish o‘rni yaratilishi prognoz qilinmoqda.

Davlatimiz rahbari bunyod etilgan muh-tasham inshoot o‘zbek va qoraqalpog‘ xalqlari o‘rtasidagi mustahkam ishonch va do‘stlik, og‘zibirchilik va hamkorlik ko‘prigi ekaniga alohida e‘tibor qaratdi.

Ilgari Qorao‘zak konlaridan tosh avtomobil yo‘llari orqali tashilgan, bu, o‘z navbatida, yo‘llar sifati buzilishiga sabab bo‘lgan. Endi xomashyo poyezdda tashilishi hisobiga Orolbo‘yi mintaqasidagi 4 million aholi va sayyohlarga xizmat ko‘rsatuvchi avtomobil yo‘llari sifatlari saqlanadi, boshqacha aytganda, xavfsiz harakatlanishimizga qulaylik tug‘diradi.

Bugungi kunda Qoraqalpog‘iston va Xorazm jahon nigohidagi turistik hududga aylanib bormoqda. Turizm oqimi qancha tezlashsa, aholining daromad manbai shuncha ko‘payadi, mavsumiy va daromadli ish o‘rinlari yaratiladi. Shu maqsadda bu yil Buxoro — Urganch — Xiva, 2025-yildan Miskin — Nukus temir yo‘li elektrlashtiriladi. Natijada Xiva hamda Nukus shaharlariga tezyurar poyezdlar qatnovi yo‘lga qo‘yiladi. Ushbu hududlardagi aholining yurtimizning boshqa shaharlariga borib-kelishi, ichki turizm osonlashadi. Bu loyihalar hisobidan transport xarajatlari 2 barobar qisqarib, yo‘lovchi tashish hajmi 30 foiz oshadi.

Har ikki hududning savdo-sotig‘ini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan 400 million dollarlik ushbu loyiha investitsiyalar va yangi ish o‘rinlari ko‘payishi, aholi daromadlari o‘shishiga asos bo‘ladi.

## Tadbirkorlari ko‘p yurt boy va qudratli bo‘ladi

Davlatimiz rahbari tashrif davomida Xorazm viloyatidagi ijtimoiy-iqtisodiy, qishloq xo‘jaligi va tabiiy resurslar sohasida hali ishga solinmagan xazinalardan samarali foydalanish bo‘yicha ustuvor vazifalarni belgilab berdi.

Jumladan, Xorazmda kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlashga 100 million dollar imtiyozli sarmoya ajratilishi hisobiga 5,5 ming tadbirkorga ko‘mak beriladi, 50 mingga doimiy ish o‘rni yaratiladi.

Viloyatda qiymati 10 milliard dollarlikdan ziyod yirik gaz-kimyo majmuasini barpo etish bo‘yicha dunyoning eng ilg‘or kompaniyalari bilan muzokara olib borilayotgani ham hudud iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega. Binobarin, ushbu loyiha ishga tushsa, 3 mingga ish o‘rni yaratiladi. Bu shuncha oilaga muqim va mo‘may daromad, farovonlik kiradi, degani. Boshqa tomondan, yiliga 2,5 million tonna yuqori qo‘shilgan qiymatli polimerlar ishlab chiqarilishi yo‘lga qo‘yilishi esa sanoat,



umuman, viloyat iqtisodiyoti barqarorligida katta ahamiyatga ega.

Joriy yildan Xorazmda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash maqsadida import xomashyo materiallari uchun 5 yilgacha bojxona to‘lovi qo‘llanilmaydi, qo‘shilgan qiymat solig‘ini 180 kun kechiktirib to‘lashga ruxsat beriladi.

Mahalliyashtirish loyihalari uchun olingan kredit foizining 10 foizi qoplab beriladi, davlat mulki va yer uchastkalarini xususiyashtirishda 5 yil ichida bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati taqdim etiladi.

Davlatimiz rahbari mahallalarda ishsiz aholi bilan ishlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini qo‘llab-quvvatlashni yanada takomillashtirish, kasb-hunarga o‘qitish bo‘yicha qilinayotgan ishlar bilan tanishish maqsadida Xiva tumanidagi Istiqlol mahallasida bo‘ldi.

Tashrif davomida ko‘chmas mulk, eksport va boshqa tadbirkorlik faoliyati uchun qator imtiyozlar berilib, erkin iqtisodiy zonalariga alohida e‘tibor qaratildi. Jumladan, Hazoraspda xitoylik investorlar bilan lak-bo‘yoq, shisha mahsuloti va elektrotexnika yo‘nalishida 300 million dollarlik 4 ta loyiha joylashtirilishi rejalashtirildi.

Shu bilan birga, Urganch shahridagi AI-Xorazmiy majmuasida sanoat binolari qurilib, tadbirkorlarga tayyor holda topshirilishi, maxsus tibbiyot industrial parkiga esa 12 ta loyiha joylashtirilishi qayd etildi.

Viloyatda Xitoy tajribasi asosida uy sanoati, ya‘ni ipakchilik va gilamchilik kooperatsiyalari tashkil qilinadi, tarmoqda kamida 10 mingga oila kasb-hunarga o‘qitiladi. Ularga 100 million so‘mgacha garovsiz kredit beriladi. Bu savobli va xayrli ish, chunki buning ortidan minglab xonadonga fashy-baraka, xotirjamlik kiradi, odamlar bugungi yashayotgan hayotidan rozi bo‘lishiga erishiladi.

Oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida bu yil 5 mingga xonadonda intensiv usulda baliq boqish, 4400 ta xonadonga tikuvchilik, parranda, chorva, asalar va bog‘dorchilik bo‘yicha moliyaviy ko‘mak berilib, shu orqali ko‘plab ishsizlar kambag‘allik safidan chiqariladi.

## Yalpi hududiy mahsulot hajmi sezilarli oshmoqda

Mehnatkash, yangilikka intiluvchi xorazmliklar sa‘y-harakati evaziga 2023-yilda viloyatda YHM hajmi 4,4 foiz o‘sdi va savdo aylamasi

36 916,5 milliard so‘mni tashkil etdi. YHMning o‘sishi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 104 foiz, sanoatda 106,1 foiz, qurilishda 106,6 foiz va xizmatlar sohasida 103,5 foiz bo‘ldi. Aholi jon boshiga YHM 2,5 foiz o‘sdi va 18 674,9 ming so‘mni hosil qildi.

Viloyat bo‘yicha jami doimiy aholi soni 1 million 965,2 ming kishini tashkil etadi, boshqacha aytganda, aholi soniga munosib ravishda ularning talab va ehtiyojlari ham o‘tib boryapti. Ularni qoplashga bugundan harakat qilinmasa, ertaga qiyin bo‘ladi.

Xorazmda yer degradatsiyasi kuchli, ichimlik suv tanqis va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi ancha ko‘p. Shu bois, viloyatni sanoatlashtirish, xomashyodan qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishning to‘liq zar-jirini yaratish kunning dolzarb mavzusidir. Hududda bunga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Davlatimiz rahbari bevosita faoliyati bilan tanishgan “Xiva klaster” mas‘uliyati cheklangan jamiyatining to‘qimachilik korxonasi ana shunday tadbirkorlik subyektlaridan biri.

Korxona Turkiya, Germaniya va Xitoyning ilg‘or texnologiyalari bilan jihozlangan, 500 kishining bandligi ta‘minlangan. Yiliga 7 ming tonna ip-kalava, 4 ming tonna trikotaj mahsuloti ishlab chiqarish quvvatiga ega. Mahsuloti to‘liq eksportga yo‘naltiriladi. Yillik eksport aylamasi 15 million dollar.

Davlatimiz rahbari korxonada energiya tejamkor texnologiyalar joriy etilganiga alohida qiymat qo‘ydi. Masalan, kuz-qish oylarida xonalar ishlab chiqarish jarayonida hosil bo‘ladigan issiq suv yordamida isitilishi, natijada katta miqdorda tabiiy gaz tejaliishi bugungi kunning energiya tanqisligi bilan bog‘liq dolzarb masalasiga yaxshi yechimdir, hududlarda ommalashtirishga arziydi. Majmua tomlariga umumiy quvvati 60 kilovattlik quyosh panellari o‘rnatilishi hisobiga mahsulot tanmariq raqobatlashilishiga nisbatan past va bozori chaqqon. Klaster tomonidan chiqindilarni qayta ishlash ham yo‘lga qo‘yilganki, bu xorazmlik tadbirkorlar faoliyatida innovatsiyalar keng joriy qilinayotganini ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda qo‘shimcha qiymat yaratishga ustuvor ahamiyat qaratilib, “xomashyodan — tayyor mahsulotgacha” tamoyili asosida drayver sohalarda klaster tizimi rivojlanmoqda. Iqtisodiyotda yuqori o‘rinish sur‘atlariga erishish uchun, avvalo, makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlab, inflyatsiya darajasini belgilangan 5 foizgacha pasaytirish choralarini ko‘rilmokda.

Shunga hamohang ravishda mazkur to‘qimachilik klasteri o‘tgan yili qariyb 20 ming tonna paxta xomashyosini mahalliy aholi hamkorligida yetishtirgan. Paxta vegetativ davrida 1545 gektarda tomchilab sug‘orish yo‘lga qo‘yilgani ham tanqislik muammosini yengish, ham yuqori va sifatli hosil olishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Yurtimizda yangi ish o‘rinlari yaratgan tadbirkor va ishbilarmonlar doimo qo‘llab-quvvatlab kelinadi. Tashrifda viloyatda ish

o‘rinlari yaratgan fermer va klasterlarga “Ish quruling soz bo‘lsa, mashaqqating oz bo‘lur” naqlida mingta texnikani lizing asosida yetkazib berishni mutasaddilar zimmasiga yukladi.

Rivojlangan davlatlar tajribasida har bir hududga eksport uchun mo‘ljallab yetishtirilgan mahsulotlarni saqlash omborlari muhim ahamiyatga ega. Eksportga ixtisoslashib borayotgan Xorazm tumanlarida 40 tadan kichik sovitkichli ombor tashkil qilinishi, 10 ta kichik agrologistika markazi qurilishi taklif qilindi.

Globalashuv sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu sohada ham viloyat ildamlamoqda, tashrif doirasida 200 ming bosh parrandaga mo‘ljallangan 5 ta sanoatlashgan yirik parandachilik korxonasi ishga tushirilishi ma‘lum qilindi.

Viloyatda yirik kanallarni betonlashga qo‘shimcha 145 millard so‘m ajratilgan. Ichki sug‘orish tarmoqlarini betonlashni vegetatsiya davrigacha yakunlash zarurligi qayd etildi.

## Investitsion jozibadorlik va turizm

Investitsiyalarning ijtimoiy ahamiyati davlat oldida tobora dolzarb bo‘lib boryapti. Negaki, muayyan investitsiya loyihasiga kiritilgan har bir mablag‘ oxir-oqibat jamiyatga ijtimoiy foyda keltiradi. O‘z navbatida, korruptsiya darajasi pasayishi, ta‘lim va sog‘liqni saqlash sifati oshishi va ichki mahsulot arzonlashishi, tashqi bozorda o‘z brendiga ega bo‘lish, kambag‘allikni qisqartirishni samarali boshqarishga olib keladi.

Viloyatda rejalashtirilayotgan investitsiya loyihalari taqdimotida hududda chet ellik investorlar bilan hamkorlikda mashinasozlik, shaharsozlik, kimyo, to‘qimachilik, qurilish materiallari, tibbiyot, oziq-ovqat kabi muhim tarmoqlarda umumiy qiymati 1,5 milliard dollarlik o‘nlab loyihalar ishlab chiqilgani ta‘kidlandi.

Taqdimotda umumiy qiymati 660 million dollardan ziyod 18 ta loyiha hayotga jadal joriy etilishi zarurligi aytiladi. Xususan, yuk elektromobillari, akkumulyatorlar uchun nikel sulfat, arxitektura oynalari, shisha idishlar, qurilish materiallari, lak-bo‘yoq va mato ishlab chiqarish kabi loyihalar hudud iqtisodiyoti rivojiga katta hissa qo‘shib, minglab ish o‘rinlari yaratishi bilan ahamiyatli.

Insoniyat madaniy merosining ajralmas qismi — Xorazm diyori jahonda sayyohlar oqimini sezilarli jalb qilib borayotgan hududlardir. Tashrif davomida mehmonxona, shifoxona, ko‘ngilochar maskanlar va yo‘llar qurish, ekoturizm va baliqchilikni rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni samarali ishlatishda kasb-hunar o‘rgatuvchi ta‘lim muassasalarining o‘rniga alohida e‘tibor qaratildi.

Xususan, oliy ta‘lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlashda kompetensiyaga asoslangan yondashuv zarurligi uqtirildi. Bo‘lajak mutaxassislarning kompetensiyalarini yaratishda bitiruvchilar ishlashi mumkin bo‘lgan, jumladan, turizm mutaxassislarga qo‘yiladigan talablar inobatga olinishi zarurligi ta‘kidlandi.

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimidagi kasb-hunar maktablari va texnikumlar turizm kasb va mutaxassislari, xorijiy til o‘rgatilishini sifat jihatidan ko‘rib chiqish belgilab berildi.

Sayyohlarga bir yil davomida Xorazmga cheklovsiz kirish uchun “O‘zbekiston — mening ikkinchi uyim” viza tizimi joriy qilinadi. Urganch shahrida “Lazgi” va “Avesto” muzeyi tashkil etiladi. Mehmonxona va dam olish maskanlari qurish, mavjud o‘rinlarni ko‘paytirish uchun imtiyozli kreditlar beriladi. Bu orqali Xorazmga xorijiy sayyohlar oqimini 1 millionga, mahalliy sayyohlarni 4 millionga yetkazib, 20 ming ish o‘rni yaratish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Yangi O‘zbekistonda turizm industriyasi va infratuzilmasi raqamlashtirilmoqda, turistik xizmat sohasi mamlakat miqyosida olib borilgan xususiyashtirish va bozor iqtisodiyoti tizimiga o‘tish jarayoni talablariga mos holda qayta isloh qilinishiga erishildi.

Davlatimiz rahbari turizmni rivojlantirish bo‘yicha 3 yillik dastur qabul qilinishi, dastur doirasida turizm jamg‘armasining tushumi

shu davrda Xorazmning o‘zida qoldirilishini ta‘kidladi. Mehmonxonalar qurish uchun 7 yilga 2 yil imtiyozli davr bilan 18 foiz stavkada kreditlar berilishi ko‘zda tutildi.

Urganchdan Termiz, vodiy viloyatlari, Samarqand, Buxoro hamda Sankt-Peterburg, Madrid, Frankfurt, Pekin va Urumchiga aviaqatnovlar yo‘lga qo‘yilishi, umuman, turizm rivoji bo‘yicha belgilab berilgan vazifalar Xorazm va Qoraqalpog‘istonda turizm iqtisodiyotning drayveriga aylanishini ko‘rsatadi.

## Mahalla va oliy ta‘lim uyg‘unligi

Bugun mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta‘minlashga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida qaralmoqda.

Xorazmda ham mahalla institutining mavqei oshib bormoqda. O‘z nomiga monand mahalla tuzilmasi aholi bandligini ta‘minlash, yoshlar, ayniqsa, xotin-qizlarni kasb-hunarga jalb qilishda oliy ta‘lim va boshqa tashkilotlar bilan ko‘priki vazifasini bajarmoqda.

Bu sa‘y-harakatlar bevosita “oila — mahalla — maktab — oliy ta‘lim” tamoyili asosida ish bilan band bo‘lmagan yoshlarni topish, ular bilan individual ishlash va qobiliyatiga qarab kasb-hunarga o‘qitishga asos bo‘lmoqda.

Davlatimiz rahbari mahallalarda ishsiz aholi bilan ishlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini qo‘llab-quvvatlashni yanada takomillashtirish, kasb-hunarga o‘qitish bo‘yicha qilinayotgan ishlar bilan tanishish maqsadida Xiva tumanidagi Istiqlol mahallasida bo‘ldi.

Mahalla faollari bilan uchrashuvda ishsizlarga dehqonchilik uchun yer berish tajribasining Xorazm uchun ahamiyati kattaligi aytiladi.

Mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, profilaktika inspektori, soliqchi va ijtimoiy xizmat xodimidan iborat “mahalla yetitilgi” vazifasi ishsizlikni kamaytirish, tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash orqali yangi ish o‘rinlari yaratishdir.

Ijtimoiy sohani rivojlantirish masalalariga ham alohida e‘tibor qaratildi. Xorazmda avtomobilsozlik, turizm, qishloq xo‘jaligi va baliqchilikda malakali kadrlarga talab o‘tib borayotgani qayd etildi.

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga Urganch shahridagi 2-kasb-hunar maktabida “Pirson” dasturini joriy qilib, o‘quvchilarga “mehmonxona ishi” va “turizm” yo‘nalishida xalqaro malaka berishni yo‘lga qo‘yish topshirildi.

Davlatimiz rahbari Urganch shahrida 2023-2024-o‘quv yilidan faoliyat boshlagan Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyi ko‘zdan kechirdi. Aniq fanlar yo‘nalishida ikki yil ta‘lim olinadigan 300 o‘rinli zamonaviy binoda yoshlarning jahon standartlari asosida ta‘lim olishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Jumladan, o‘quv xonalari eng so‘nggi rumsidagi multimedia va kommunikatsiya vositalari bilan jihozlangan, axborot-resurs markazida 7 mingdan ortiq o‘quv va badiiy kitob, 11 mingdan ortiq elektron adabiyot mavjud.

Litseyda o‘quvchilar darsdan tashqari o‘ndan ortiq fan, axborot texnologiyalari, ijodiy to‘garaklar hamda sport bilan shug‘ullanishi mumkin. Ular barcha moddiy-texnik bazadan foydalanish bilan birga, bepul kimy-kechak, to‘rt mahal issiq ovqat bilan ta‘minlanadi.

Bugungi kunda o‘quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb vazifalarimizdan sanaladi. Davlatimiz rahbari shu nuqtayi nazardan muassasadagi ta‘lim jarayoni bilan tanishish asnosida o‘qituvchi va o‘quvchilar bilan suhbatlashdi.

Prezidentimizning Xorazmga tashrif davomida bildirgan fikr-mulohazalari viloyat oliy ta‘lim sohasida so‘nggi 5 yillikda kutilayotgan investitsiyalar natijasi, kadrlar tayyorlashga bo‘lgan talabni hisobga olgan holda kvotalarni qayta ko‘rib chiqishni taqozo qiladi. Texnikumlarni kasb-hunarga yanada ixtisoslashtirish, nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirgan holda joriy etish kerak bo‘ladi.

Zero, oliy ta‘lim sohasi investorlar va yirik tadbirkorlar, klasterlar, xorijiy oliy ta‘lim muassasalari bilan hamkorlikda qo‘shma dasturlar asosida kadrlar tayyorlashni amalga oshiradi. Ishlab chiqarish hajmiga qarab, kvotalarni hamkorlar bilan kelishilgan holda belgilaydi. Muayyan sohada va hududdagi mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug‘ullanadi, fundamantal, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish orqali barqaror iqtisodiyotga erishish uchun istiqbolli ko‘zlaydi.







## Dolzarb mavzu



**Dilshod ULUG'MURODOV,**  
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

### Boshlanishi 1-betda

Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish subyektlarini ekologik jihatdan tekshirish faollashdi. Talabga javob bermaganlari jarimaga tortildi. O'z navbatida, ishlab chiqarish korxonalari “biz ekologiyaga hech qanday zarar keltirayotganimiz yo'q” mazmunida muloqotlar, tadbirlar uyushtirdi. Energetika vazirligi mazut masalasida bayonot ham berdi.

### Zamonaviy avtomobil nima uchun kerak?

Ana endi elektromobillar ommalashishi xususidagi mulohazalarga keldik. Ko'ryapmiz, ekologiya tobora yomonlashmoqda, havo sifati past. Yonilg'i taqchilligi ortmoqda. Shu bois, butun dunyoda elektr yoki gibrad avtomobillarga ehtiyoj tobora kuchaymoqda. Jumladan, O'zbekistonda ham. Chunki elektromobillar ekologik ilojisizlik va yonilg'i qaramligidan olib chiqishi mumkin. Ayni paytda dunyo bozoriga elektromobil yetkazib berishda yetakchilikka intilish kuchayganining boisi ham shunda.

Ma'lumotlarga ko'ra, hozir jahon avtomobil bozorida elektr transport vositalari umumiy sotuvning 2,7 foizini tashkil qilmoqda. Mutaxassislar avtomobil sanoati rivoji import neft mahsulotlariga qaramlikni kuchaytirishi, katta shaharlarda ekologik vaziyatni og'irlashtirishini ko'p ta'kidlaydi. Zotan, bu qator mamlakatlarda kuzatilgan. Xususan, Xitoy ushbu muammoni yechish uchun innovatsion transport parki va mos keladigan yangi avlod infratuzilmasini yaratishga qaratilgan energiya tejavochi hamda yangi energiyaga asoslangan avtomobilsozlik sanoatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratgan. Natijani esa bugun barcha ko'rib, bilib turibdi.

2023-yilda dunyoda 9,5 millionta elektromobil, 4,1 millionta gibrad avtomobil ishlab chiqarilgan. Sotilgan har beshta avtomobilning biri elektromobil bo'lgan.

# ELEKTROMOBILLAR KELAJAK TRANSPORTI

Xalqaro energetika agentligi hisobotiga ko'ra, umumiy hisobda so'nggi 3-yilda elektromobillar savdosi 5 barobar oshgan. 2023-yilda dunyoda ishlab chiqarilgan elektromobillarning 50 foizi Xitoyda tayyorlangan.

Ushbu turdagi mashinalarni ishlab chiqarishning kengayib borishi ayrim turdagi foydali qazilmalarga, xususan, lityi, nikel, kobalt, grafit va kamyob metallarga talabni oshirdi. Bu ishlab chiqaruvchilarni yangi bozorlar, yangi hamkorlar izlashga majbur qilmoqda. Talab, ayniqsa, Xitoyda yuqori. Chunki u hozir bunday avtomobillar ishlab chiqarishda yetakchi.

Elektrda harakatlanuvchi transport vositalari biz uchun yangilik emas. Bugun ular ko'chalarimizda ancha ko'paygan. Ishxonamizda, tanishlar, qarindoshlar orasida sotib olganlar uchraydi. Xullas, har birimiz uning afzallik va qulayliklari xususida ozmi-ko'pmi taassurotga egamiz.

Elektromobillar atrof-muhit uchun yaxshiroq ekani, havoni ifloslantirmasligi allaqachon isbotlangan va bu eng asosiy jihat. Yana bir afzalligi — elektromobillar shaharlar uchun muhim bo'lgan shovqin darajasini sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi.

Tahlillar ko'rsatmoqdaki, agar elektromobillar qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan quvvatlanadigan bo'lsa, 100 foiz ekologik xavfsiz hisoblanadi.

Bir yil davomida foydalanilgan bitta elektromobil atmosfera havosi o'rtacha 1500 kilogramm karbonad angidrid bilan ifloslanishining oldini oladi. Aksincha, benzinli har bir avtomobil 15 ming kilometr masofani bosib o'tganda atmosferaga 3 tonnadan ortiq karbonat angidrid gazi, 93

atmosferaga tashlanadigan gazlar emissiyasini nolga tushirishini rasman e'lon qilgan.

Yana bir qiziq tahlil. O'zbekistonda elektromobillar ommalashishiga ta'sir qiluvchi muhim omil an'anaviy yonilg'iga nisbatan elektr energiyasining narxi hisoblanadi.

100 kilometr harakat davomida elektromobil 23 kVt/soat energiyasi, an'anaviy avtomobil esa o'rtacha 7,5-8,5 litr yonilg'i sarflaydi. Elektromobil bir

Elektromobillar ommalashuviga to'siq narx bilan bog'liq. Dunyo bozorida ularning o'rtacha narxi odatiy mashinalarga nisbatan sezilarli darajada qimmat. Internetdan istagan mashina oldi-sotdisiga oid sayt yoki kanalga kiring, narxlar chiqadi. Lekin elektromobilning eng past narxli ham oddiy odamlar uchun arzon emas. To'g'ri, xaridor chaqirish uchun turli aksiyalar, bo'lib to'lash shartlari e'lon qilayotgan avtosalonlar ham yo'q emas. Biroq bunga



**Elektromobillar atrof-muhit uchun yaxshiroq ekani, havoni ifloslantirmasligi allaqachon isbotlangan va bu eng asosiy jihat. Yana bir afzalligi — elektromobillar shaharlar uchun muhim bo'lgan shovqin darajasini sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi.**

hammaning qurbi yetavermaydi. Dunyo elektromobil sanoatidagi izlanishlar, xomashyoning yetarli bo'lishi, ehtiyoj qismlar ishlab chiqarilishi ko'paytirilishi, yangi zavodlar paydo bo'lishi kelgusida narx tushishiga olib kelar balki.

Shu bilan birga, elektromobillarni quvvatlantirish stansiyalarini ko'paytirish ham muhim masalalardan.

### Amaliy ishga kirishish vaqti allaqachon kelgan

Muammo aniq. Yechim aybni kimgadir ag'darish yoki bahona qidirib emas, balki hamjihatlikda, hamkorlikda harakat qilish orqali topilishi kerak. Yangilikka intilsak, zamonaviy, innovatsion loyihalarni hayotga tezroq tatbiq etsak, atmosferaga kamroq zahar chiqaramiz, avtomobillarga gaz va benzin quyish shoxobchalarida navbatlar qisqaradi. Talashishlar kamayib, noxush holatlarning oldi olinadi.

“Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili” davlat dasturida ushbu masalaga jiddiy e'tibor berilgan. Unda ekologiyaga avtomobillar chiqindi gazlarining zararli ta'sirini kamaytirish uchun Toshkent shahrida har oyning bir ish kuni davomida avtomobillar harakatlanishini (jamoat transportlari, maxsus va shoshilinch yordam xizmatlaridan tashqari) qisqartirishga qaratilgan “Avtomobilsiz kun” loyihasi ma'qullandi. Bunda binosi Toshkent shahrida joylashgan barcha respublika hamda hududiy ijro etuvchi hokimiyat organlarining rahbar va boshqa xodimlari jamoat transportida ish joyiga kelishi orqali namuna ko'rsatadi.

Mamlakatimizda chang bo'ronlariga qarshi kurashish va salbiy oqibatlarini yumshatish doirasida 2024-yil 1-martdan boshlab hududlarda chang bo'roni sodir bo'layotganda va atmosfera havosida mayda dispers zarrachalar belgilangan normadan yuqori bo'lgani aniqlanganda aholini ogohlantirish amaliyoti yo'lga qo'yildi. O'Ichami 500 metr kvadrat va undan ortiq qurilish maydonlarida, unga kirib-chiqish yo'llarida chang hamda qum zarrachalarining havoga ko'tarilishini bartaraf etish bo'yicha majburiy talablar joriy etildi.

Toshkent shahrida yuk tashish uchun mo'ljallangan, ruxsat etilgan to'la vazni 10 tonnadan yuqori bo'lgan avtotransport vositalarining harakati tig'iz vaqt oraliqlarida taqiqlandi.

Shuningdek, 2030-yilga qadar Toshkent va Nukus shaharlari, viloyatlar markazlarida “YEVRO-5” va undan yuqori standartlarga mos kelmaydigan avtomashinalar eks-pluatatsiyasi bosqichma-bosqich cheklanadigan bo'ladi.

Prezidentimizning 2022-yil 19-dekabr-dagi “Elektromobillar ishlab chiqarishni tashkil etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorida ham elektromobillar va ularning butlovchi qismlarini ishlab chiqarishni rag'batlantirish orqali havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini qisqartirishga qaratilgan qator vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, 2023-2025-yillarda davlat boshqaruvi va mahalliy davlat hokimiyati organlari, ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz hamda undan ortiq bo'lgan korxonalarga elektromobillar va gibrad avtomobillar xarid qilinishi ko'rsatib o'tildi.

Respublikamizda elektromobillar va gibrad avtomobillarni sanoat usulida ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish hamda

ulardan foydalanishni ommalashtirish bo'yicha “Yo'l xaritasi” ishlab chiqildi. Bunday avtomobillarni sanoat usulida ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish hamda butlovchi qismlarini mahalliyashtirish, ulardan foydalanishning afzalliklari bo'yicha targ'ibotni kuchaytirish, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash vazifalari qo'yildi.

Qarorda, shuningdek, respublikamizda ishlab chiqarilgan va ichki bozordan elektromobil hamda gibrad avtomobillarni sotib olish uchun jismoniy shaxslarga milliy valyutada ajratiladigan, bazaviy hisoblash miqdori 1200 baravaridan oshmaydigan kreditlar berilishi, ularni sanoat usulida ishlab chiqarishni yo'lga qo'yadigan barcha investorlar va tadbirkorlik subyektlariga nisbatan qo'llab-quvvatlovlar teng tatbiq etilishi belgilab qo'yildi.

Joriy yilning yanvar oyida Prezidentimiz Xitoyga davlat tashrifi doirasida dunyo bozoriga elektromobillar yetkazib berishda yetakchilik qilayotgan BYD kompaniyasi bilan hamkorlikda Jizzax viloyatida yiliga 50 ming dona gibrad va elektr avtomobil yig'ish loyihasini ishga tushirishga bag'ishlangan tantanali marosimda ishtirok etdi. Yaqin istiqbolda ushbu loyiha doirasida ishlab chiqarish quvvati yiliga 500 ming donagacha yetkazilishi rejalashtirilgan.

Bugun elektromobillar hayotimizga jadal kirib kelmoqda va vaziyat taqozo etayotgan zaruriy ehtiyojga aylanmoqda. So'nggi uch yilda O'zbekistonda elektromobillar sotuvi 10 barobar ko'paygani, 2023-yilda import qilingan avtomobillarning 35 foizini elektromobil va gibradlar tashkil qilgani shundan dalolat beradi. Bu yo'nalishdagi marrani kengroq olib, loyihalarni jadallashtirish zamon talabi. Tarmoqda raqobatbardosh bo'lish uchun, eng avvalo, innovatsiya va ilg'or texnologiyalar kerak. Shu bois, Turin politexnika instituti, muhandislik markazlari, ilmiy institut va laboratoriyalarni o'zaro bog'laydigan yaxlit tizim yaratiladi. Mutaxassis va ishchilarni tayyorlashni hozirdan boshlash kerak. Bular davlatimiz rahbari tomonidan joriy yilning 6-fevral kuni elektromobil ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari bo'yicha taqdimot bilan tanishish jarayonida alohida ta'kidlandi.

Elektromobillar, elektr energiyasida harakatlanadigan har qanday transport vositasi kelajak texnikasidir. Bugungi sa'y-harakatlar esa kelgusi toza ekologiya va toza havo uchun, barqaror energiya ta'minoti uchun qo'yilayotgan qadamlardir.

## Bugunning gapi



**Shu kunlarda yurtimizda benzin muammosi yuzaga kelgan. Havo sovishi tufayli bilan avtomobillarga gaz quyish shoxobchalariga kiritilgan cheklovlar sabab benzin quyish shoxobchalaridagi navbatlar ortgan. Haydovchilar orasida ommalashgan AI-80 benzin esa hamma joyda mavjud emas va cheklangan miqdorda sotilmoqda.**

avtobenzin uchun aksiz solig'i “nol” stavkada qo'llanilsa, davlat budjeti 1 trillion 257,8 milliard so'm yo'qotishi mumkin. Shu bois, bugungi kunda AI-80 benzinini bosqichma-bosqich iste'moldan chiqarish choralari ko'rilmogda. 2025-yilga borib, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodida AI-80 ishlab chiqarilishi to'xtatiladi. 2026-yilga borib esa Buxoro neftni qayta ishlash zavodi to'lig'icha sifatliroq yoqilg'i ishlab chiqarishga o'tkaziladi.

Bozorda taqchillik kuzatilmisligi va iste'molda uzilish bo'lmasligi uchun chora-tadbirlar rejalashtirilgan. Jumladan, xorijdan benzin olib kiruvchi subyektlar faoliyatini kengaytirish orqali iste'mol bozori bir maromda ushlab turiladi. Xorijiy sarmoyadorlarga ko'proq benzin shoxobchalari qurish imkonini beriladi. Bu orqali raqobat yaratilib, bozorda yonilg'i sifati va narx barqarorligiga erishish rejalashtirilmoqda.

Yonilg'i yetishmovchiligini kamaytirish maqsadida, shuningdek, elektromobillarni quvvatlantiruvchi tarmoqlar kengaytirilishi ham belgilanmoqda.

— Kuni kecha benzin importi savdosi bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar vakillari bilan tashkil etilgan ochiq muloqotda shu masala muhokama qilindi, —

deydi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi raisi o'rinbosari Asadulla Qayumov. — Unda tadbirkorlarimiz sohadagi mavjud tizimli muammolarni bayon qilishdi. Jumladan, ularning aytishicha, banklar tomonidan ajratilgan kredit yuklamasi, logistika narxlar yuqori. Masalan, Rossiyadan chegaragacha bo'lgan masofa (1700 kilometr)ga bir tonna yonilg'i uchun tashish narxi 150 dollarga tushadi. Ichki temir yo'l orqali tashish xizmati esa 8-10 kilometr uchun 15-20 dollarni tashkil qilmoqda.

Import qilingan benzin barcha standartlarga to'g'ri kelishi va sifati talabga javob berishi yuzasi-

dan hujjatlar borligiga qaramay, yurtimizga olib kirilganda qo'shimcha majburiy sertifikatlashdan o'tkaziladi. Import qilingan benzin uchun QQS to'lovini to'lash muddati esa qisqa.

Bundan tashqari, import qilish ushbu xorijiy davlatlarga pul o'tkazib berganda, niyatda mablag' geosiyosiy vaziyatlardan kelib chiqib taqiqlarga tushib qolgan vaqtlarda mahsulot o'z vaqtida yetib kelmasligi kuzatilgan. Ayni shu davrda mahsulot realizatsiya qilinmagan, biroq mablag' o'tkazilgani uchun solliqqa tortilishi holatlari mavjud.

Katta hajmda benzin olib kirilganda ularni saqlash uchun sig'imlar mavjud emas yoki



borlarining ijarasi qimmat. Turkmanistondan benzini xarid qilish jarayoni juda ko'p vaqtni talab qilmoqda.

Qisqasi, benzin masalasida muammolar bor. Ularni aniqlash va tizimli ravishda hal etish choralarini ko'rish muhim vazifaga aylanmoqda. Aks holda bir salbiy holatdan ikkinchisi yuzaga chiqib kelavermadi. Shulardan eng oxirgilardan birini keltiramiz.

Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlariga qarshi kurashish departamenti Buxoro viloyat boshqarmasi hamda hududiy bo'limlari tomonidan o'tkazilgan tezkor tadbirlarda 14 fuqaro noqonuniy daromad o'tirish maqsadida yashash xonadonida benzini chakana sotish bilan shug'ullanib kelayotgani aniqlangan. Ulardan jami 1270 litr benzin ashyoviy dalil sifatida olingan. Departamentning Bekobod shahri bo'limi tomonidan IIB xodimlari bilan hamkorlikda o'tkazilgan tezkor tadbirda fuqaro R.R. noqonuniy daromad o'tirish maqsadida fuqaro M.X.ga 2000 litr benzinni 22 million so'm va 100 AQSH dollariga sotgan vaqtda ushlangan.

Ayni paytda mazkur holatlar yuzasidan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning tegishli maddalari bilan qonuniy choralar ko'rilmogda.

Muhimi, bu borada qilinayotgan ishlar, ko'rilayotgan choralar yonilg'i ta'minotidagi uzilish va yetishmovchiliklarni kamaytirishga qaratilgan.

**Dilshod JUMABOYEV,**  
jurnalist





## Uyg‘oq fikr

IRSIYAT, MUHIT, TARBIYA  
insoniylikning uch muhim asosi

**Xolboy IBRAIMOV,**  
*T.N.Qori Niyoziy nomidagi  
O‘zbekiston pedagogika fanlari  
ilmiy-tadqiqot instituti direktori,  
akademik*

Maktablardagi inspektor-psixolog sh-tati Ichki ishlar vazirligidan Milliy gvardiya tizimiga o‘tkazildi. Ota-onalar va mahalla raislarining bu boradagi mas‘uliyati oshirilgani, “Maktab — ota-ona — mahalla” zanjiri asosida muloqot platformasi ishga tushirilishi sohadagi kamchiliklarni bartaraf etishga, albatta, o‘z ijobiy ta‘sirini ko‘rsatadi. Chunki bola mahallada o‘tib ulg‘ayadi. Uning yaxshi-yomoni mahallaga ma‘lum. Bu choralar vatanni sevuvchi, el-yurt koriga kamarbasta bo‘luvchi ma‘naviyati yuksak yoshlarning kamoliga xizmat qiladi.

Yosh avlod tarbiyasi juda muhim va mas‘uliyatli masaladir. Chunki yurtning ertasini shular belgilaydi. Dunyoning turli burchaklarida ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi tahlikali zamonda bolalar tarbiyasi masalasida sergak va ogoh bo‘lish har qachongidan muhim. Shu o‘rinda buyuk ajdodlarimiz merosiga murojaat qilish maqsadga muvofiq. Abu Rayhon Beruniyning yosh avlodni tarbiyalashda uch narsa muhim rol o‘ynashini ta‘kidlagani bejiz emas. Bu irsiyat, muhit va tarbiya. Abu Nasr Forobiy esa ta‘lim-tarbiyada rag‘batlantirish, odatlantirish va majbur etish usullarini ilgari surgan. Har ikkala usul ham pirovardida insonni har tomonlama kamolga yetkazish maqsadini ko‘zlaydi.

Davlatimiz rahbari raisligida joriy yil 5-fevral kuni ijtimoiy sohalardagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida farzandlarimiz ta‘lim-tarbiyasi masalasiga alohida e‘tibor qaratildi. Maktab o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash orqali ularda huquqbuzarlikka qarshi immunitet hosil qilish zarurligi ta‘kidlandi.

*O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa,  
Oltin boshning kalla bo‘lgani shudir.  
Bedil qolib, Demyan Bedniyni suysa,  
Qora sochning malla bo‘lgani shudir,  
deb yozgan edi Erkin Vohidov.*

Qarang, tarbiya haqida qanday chiroyli o‘git. Milliy g‘urur, Vatanga sadoqat, el-yurtga muhabbat tuyg‘ulari bolalar ongiga yoshlikdan singdirilishi kerak. Bugun o‘g‘il-qizlar ruhiyatini tashqi xavflardan himoya qilish, ularda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda, albatta, ota-ona, mahallaning o‘mini hech narsa bilan qiyoslab bo‘lmaydi. Afsuski, yoshlar orasida noto‘g‘ri yo‘lga kirganlar ham bor. Ularning oilaviy sharoitlari o‘rganilishi shart.

Ko‘pincha ota-ona ish bilan ovora, bolalar bilan muloqot yuzaki, ularning ruhiyati, ma‘naviyati e‘tibordan chetda qolayotganini ham inkor eta olmaymiz. Bu — bizing og‘riqli nuqtamiz. Ota-ona farzandi komil bo‘lishini istaydi, buning uchun nima qilish kerak, degan savolga yuzmayuz kelganida esa boshi qotadi. Demak, ibrat yo‘q.



namuna yo‘q. Bolaga esa ota-ona, mahalla-ko‘y ibrat bo‘ladi. Agar oilada ota kitobxon bo‘lsa, farzand ham kitobga mehr bilan ulg‘ayadi. Ona ilmi bo‘lsa, bolaning ilmga muhabbati ortadi. Bunday ruhda tarbiyalangan bola ta‘limni yaxshi o‘zlashtiradi. Shu elga kerakligini his qiladi, Vatan ravnaqiga o‘zini daxldor, deb biladi.

Shu o‘rinda, yosh avlodni tarbiya qilishda eng muhim kasb egalari bo‘lgan pedagoglarni qonun himoya qilish borasidagi ishlar xususida ham to‘xtalsak. “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinishi biz, pedagoglarning sharafini ulug‘ladi, qalbimizda katta g‘urur uyg‘otdi. Qonunda pedagogning kasbiy faoliyati, huquqlari, majburiyatlari, pedagogik etika qoidalari, pedagoglarni o‘qitish hamda ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, rag‘batlantirish, ijtimoiy himoya qilish kabi normalar belgilandi. Endi pedagoglar g‘urur-iftixor bilan baralla: “Men — pedagogman”, “Men — ertangi kun poydevorini quradigan yoshlar murabbiysiman”, deb ayta oladi.

Pedagog — kelajak bunyodkori. Yoshlarni tarbiyalash va o‘qitish bilan shug‘ullanuvchi, shu soha bo‘yicha maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan mas‘uliyatli kasb egasi hisoblanadi. Pedagog kelajak avlodni tarbiyalaydi, uni har tomonlama barkamol shaxs qilib voyaga yetkazadi.

Prezidentimizning ushbu qonunni imzolashi kelajak avlodni tarbiyalashda biz, pedagoglar

## Nuqtayi nazar

Mamlakatimizda ijtimoiy davlat qurilishi strategik maqsad sifatida belgilangan. Aholi uchun munosib turmush sharoiti yaratish, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va sportni rivojlantirish bo‘yicha barcha chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Biroq bu sohalarda aholi bilan ishlash, zamonaviy standartlarni joriy etish, raqamlashtirish borasida kamchiliklar mavjud. Shu yilning 5-fevralida ijtimoiy sohadagi ustuvor vazifalar muhokamasiga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ayni shu muammolar tahlil qilinib, joriy yildagi vazifalar belgilab olindi.



## IJTIMOIY SOHA RIVOJI

OLIV TA‘LIM MUASSASALARI  
FAOLIYATI BILAN MUSHTARAK

**Abdug‘affor JO‘RAYEV,**  
*iqtisodiyot fanlari doktori,  
professor*

Jumladan, barcha maktabgacha ta‘lim muassasalarini milliy qadriyatlarga mos o‘quv-uslubiy materiallar bilan ta‘minlash, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash orqali o‘quvchilarda “jinyotga qarshi immunitet”ni shakllantirish, muntazam dars qoldiruvchi, xulq-atvorida kamchiligi bor o‘quvchilarga alohida e‘tiborni kuchaytirish, bu borada ota-onalar, mahalla raislarining mas‘uliyatini oshirishga ustuvor ahamiyat beriladi.

Surxondaryo viloyatidagi ta‘lim sifati past bir necha umumba ta‘lim maktabi Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish institutiga biriktirilgan. Ularda o‘qitish sifati va pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish uchun institutning ilmiy darajali professor-o‘qituvchilaridan iborat mobil metodik guruhrar shakllantirildi. Amaliy yordam berish maqsadida belgilangan tartibda ish rejasi tuzilib, maktablarda reyting ko‘rsatkichi

mezonlarini yuqori pog‘onaga ko‘tarish borasida qator amaliy ishlar qilinmoqda.

Shuningdek, yig‘ilishda kasbiy va oliy ta‘limning ayrim yo‘nalishlari zamonaviy mehnat bozori talablariga va texnologik taraqqiyot tendensiyalariga mos kelmasligi ta‘kidlandi. Ish beruvchilarda kadrlarga katta ehtiyoj bor, talabalarda ishlash uchun ishtiyiq bor, lekin ularni bog‘laydigan tizim yo‘q. Mana shu yo‘nalishdagi ishlar izchilligini ta‘minlash uchun shahar va tumanlardagi kasb-hunar maktablari hamda texnikumlarda institut bilan hamkorlikda darslar o‘tish yo‘lga qo‘yildi.

Professional ta‘lim muassasalarini metodik va ilmiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash uchun Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti Termiz shahridagi kasb-hunar maktabi, Sho‘rchi tumanidagi 2-kasb-hunar maktabi, Qumqo‘rg‘on tumanidagi 1-kasb-hunar maktabi, Bandixon suv xo‘jaligi va melioratsiya kolleji, Denov tumanidagi Hazorbog‘ agrotexnologiyalar texnikumi, Qiziriq agrotexnologiyalar texnikumi, Qumqo‘rg‘on agrotexnologiyalar texnikumini o‘raloqqa olgan. Ularga ilmiy darajali, malakali 30 pedagog hamda 5 doktorant biriktirilgan. Shu tariqa mazkur professional ta‘lim muassasalariga metodik va ilmiy jihatdan yordam ko‘rsatish bo‘yicha chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmogda.

Prezidentimizning “Professional ta‘lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan yigit-qizlardan 44 nafari institutga subhat asosida 2-kursdan talabalikka qabul qilindi. Bu ham yoshlarning hayotda o‘z o‘mini topish, oliy ma‘lumotli bo‘lishi yo‘lidagi imkoniyatdir.

Bundan tashqari, yig‘ilishda madaniyat sohasida ilgari belgilangan vazifalar ijrosi tahlil qilinganda har bir tumanda kinozal, kutubxona va klublarga ega madaniyat saroyi barpo etish, hududlarda madaniy tadbirlar o‘tkazish, yoshlarni san‘atga keng jalb etish zarurligi qayd etildi. Mahallalarni omamviy sport turlaridan biriga ixtisoslashtirish, viloyat va respublika musobaqalarini tashkil etish bo‘yicha vazifalar belgilab berildi.

Bu yo‘nalishda ham Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish institutida “Besh muhim tashabbus”, “Talabalar ligasi”, “Zakovat” bellashuvlari hamda sportning o‘nga yaqin turi bo‘yicha “Rektor kubogi” musobaqalari o‘tkazib kelinmoqda.

O‘zbekiston yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti tashkil etgan “Intelktual loyihalar” klubida talabalarni kitobxonlik, topqirlik va zukkolikka chorlovchi bir qancha loyihalar amalga oshirilmoqda. Hafta davomida “Zakovat”, “Breny-ring” bellashuvlari, shaxmat-shahka bo‘yicha ichki chempionatlar o‘tkaziladi. Shuningdek, yoshlarni vatanparvarlik, yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda har haftada “Ochiq eshiklar kuni”, “Harbiy qismda bir kun” loyihalarini muntazam tashkil qilmoqda.

Bu sa‘y-harakatlar mamlakat miqyosida boshlangan keng qamrovli ishlarning viloyat doirasida sifat va samara jihatidan yangi bosqichga chiqishiga hissa bo‘lib qo‘shilmogda. Qolaversa, institut jamoasi zamonaviy va sifati ta‘lim berish, agrar sohadaqi innovatsion loyihalar samaradorligini oshirish jarayonida faol qatnashish bilan birga yosh avlod kelajagiga daxldorlik tuyg‘usi bilan mehnat qilmoqda.

## Sog‘lom turmush tarzi

## ENG YAXSHISI — DORISIZ DAVO

## “Kasalligim ortga chekindi”

Avvallari ancha chaqqon, tengdoshlariga nisbatan doim yosh ko‘rinadigan Muhabbat opa negadir keyingi paytda tez-tez toliqadigan bo‘lib qoldi. Oldin bunday bo‘lmagani uchun xavotirlana boshladi. Balki o‘tib ketar degan niyatda shundoqqina ko‘cha boshiga bir-ikki borib keladigan bo‘ldi. Ammo baribir tez charchoq, nafas olishi qiyinlashishi ortga chekinmadi. Ayniqsa, uy eshigi oldidagi atigi to‘rt pog‘ona zinadan ko‘tarilish ham mushkuldek tuyulardi.

O‘zicha shifokor ko‘rigidan o‘tishga istihola qilib, ikki-uch kun jimgina yurdi. Ammo farzandlari buni sezib qolgach, baribir qo‘yishmadi. Boshqa joyga bormasa-da, mahalladagi oilaviy poliklinikaga borishga ko‘ndirishdi.

Shifokorlar tibbiy ko‘rikdan o‘tkazisharkan, bu holat qachondan boshlanganini surishtirishdi. — Qarilikmi, bilmadim. Keyingi paytda bir oz yursam nafas olishim og‘irlashganday bo‘lmoqda. Yosh ham oltmishdan oshdi, balki keksalik alomati shu bo‘lsa kerak, — deya kulib javob berdi Muhabbat opa.

— Oldingi ko‘riklardan o‘tgan vaqtiging ancha sog‘lom edingiz. Lekin bugun bir oz horg‘insiz. Vazningiz ham oshibdi-da, — deya doktor daftarisiga nimalarnidir qayd qilib qo‘ydi.

— Ha, endi ro‘zg‘orni kelinlarga topshirgach, odam dangasa ham bo‘lib qolarkan. Qo‘ini sovuq suvga urmay qo‘yganimizga ham ancha bo‘ldi-da. Demak, harakat qilib turgan yaxshi ekan-da, shundaymi, do‘xtir, — deya savol nazari bilan boqdi.

— Albatta, salomatlikning kaliti jismoniy faollikda. Endi, onaxon, rostini aytadigan bo‘lsak, sizda vazn ortishi natijasida yurak qon-tomir kasalliklari paydo bo‘lmoqda. Buning oldini olmasak bo‘lmaydi, — deya jiddiy qarash qildi shifokor.

— Unda kerakli dorilarni yozib bering, muolaja olishni boshlayman.

— Nega bemor bo‘lgan kishi faqat dori-ukol olishga shoshiladi. Aksincha, bularsiz ham odam shifo topishi mumkin. Odaming o‘zida xohish bo‘lsa bo‘lgani, — dedi doktor.

— Shunday yo‘li ham bor ekanmi, — deya hayratini yashirolmadi opa.

Shifokor ko‘rsatmasiga ko‘ra, dorisiz davo yo‘lini tanlagan Muhabbat opa astoydil salomatligi uchun kurashishga bel bog‘ladi. Ammo bu oson bo‘lmagligi aniq edi. Shunday bo‘lsa-da, ortga chekinmaslikka ahd qildi.

Erta tongdan turib, shifokorlar aytganidek, oldin hovli aylanib yuradigan bo‘ldi. Keyinchalik ko‘chaga chiqib, piyodalar yo‘lakchasida sayr qilishni odat qildi. Qishloqda keksa ayolning azonda yurishi dastlab ko‘pchilikka g‘alati

ko‘rindi. Ammo Muhabbat opa keyinchalik buning ijobiy tomonini sezgach, qolgan tengdoshlariga, yoshlarga ham tavsiya qiladigan bo‘ldi. Oqibatda salomatlik sari qadam tashlovchilar uning ortidan ergasha boshladi.

— Birinchi kunlari bir oz qiynalgan-dim, — deydi Yakkabog‘ tumani Esat qishlog‘lik Muhabbat Bobonazarova. — Shunday bo‘lsa-da, o‘zimni majburlab yurishga harakat qildim. Bir haftalar o‘rganishim qiyin kechdi. Oyoqlarimda og‘riq paydo bo‘lib, yurishimga xalaqit berdi. Ammo bu odadni to‘xtatmadim. Oradan o‘n kunlar o‘tgach, o‘zimni yaxshi his qila boshladim. Endi hovli menga torlik qilib, qishlog‘imiz ko‘chasi bo‘ylab yuradigan bo‘ldim. Gohida ayrim kishilar bu ishimdan ranjigan bo‘ldi. E‘tibor qilmadim. Mana, oradan to‘rt yil vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, hamon bu mashg‘ulotni to‘xtatganim yo‘q. Aksincha, boshqalarni ham qiziqitirib qo‘ydim. Shifokor ko‘rigiga borganimda ular inson o‘zining ba‘zi kasalliklarini dorisiz davolashi mumkinligini aytganida ishonmagandim. Buni o‘zim amaliyotda sinab, sog‘lig‘imni tiklab oldim. Hozir hech qanday darab bezovta qilmaydi. Shu bois, qishloqdoshlarim ham, yaqinlarim ham ko‘proq piyoda yurishni tavsiya qilib kelaman. Bundan tashqari, sog‘lom ovqatlanishga ham jiddiy e‘tibor qaratish lozim. Sog‘lom turmush kechirganga nima yetsin?

## Qarindosh qudalar qismati

Akaning o‘g‘li voyaga yetib, mustaqil hayotga qadam tashlash vaqti keldi. Oiladagilar kelin izlashga kirishdi. Kuyov bo‘lmishning xabari yo‘q, kimdir qo‘shni qizni, yana birov boshqasini topib, ma‘qullashga tushdi. Ammo oilada otnaning gapini hech kim qaytara olmadi. Ota anchadan beri singlisining qizini kelin qilish niyatida edi. Bundan singlisini ham xabardor qilib qo‘yg‘an. Tezda o‘rtaga sovg‘i qo‘yilib, to‘yga hozirlilik boshlandi.

Urf-odatlariga ko‘ra, to‘y qilinib, xonadonga kelin olib kelindi. Yoshlar baxtli hayot kechirishni boshladi. Afsuski, bu baxtiyor kunlar ortidan qayg‘uli damlar yaqinlashayotganini hech kim sezmasdi. Hammasi yosh oilada farzand dunyoga kelgandan so‘ng boshlandi. To‘ng‘ich nabiraning tug‘ilishi qudalarni ham mamnun etdi.

Yaxshi niyatlar bilan chaqaloqqa ism qo‘yishdi. Kunlar ketidan oylar o‘ta boshladi. Achinarlisi, go‘dakning rivojlanishi negadir ancha sust. Boshqa go‘daklardan farqli



o‘laroq, salomatligida nuqsoni bordek edi. Yosh ona buni bir oz kech angladi. Shifokor ko‘rigiga olib borilgach, bola tug‘ma nogiron ekanini aniqlandi.

Yosh ota-ona farzandini davolash istagida qanchalik yelib-yugurmasin baribir foydasi bo‘lmadi. Imkoniyati cheklangan bola yuziga temirli, onaning ham rangi sarg‘aydi. Ikkinchi bor ona bo‘lishga esa yuragi dosh bermay qoldi. Afsuski, katta orzular bilan dunyoga keltirgan ikkinchi farzand ham sog‘lom emasd. Bu safar ham doktorlar maslahatiga borgan yosh ota-ona oldin aytilganidek, aka-singilning farzandlari turmush qurishi oqibatida bu holat bo‘layotganini takrorlashdi.

Bu orada turli gap-so‘zlar ko‘paydi. Oilada kelishmovchiliklar boshlandi. Oqibatda yosh oila o‘rtasidagi nizo qudalar o‘rtasida ham paydo bo‘lib, orzu-havaslari bilan farzandlarini bir-biriga bog‘lagan aka-singil orasiga sovuqchilik tushdi. Shu holatdan so‘ng tibbiyot xodimlari ko‘p bora qishloq odamlari orasida tushuntirishlar, targ‘ibot tadbirlari o‘tkazdi. Natijada azaldan odat tusiga kirib qolgan qarindoshlar o‘rtasidagi quda bo‘lish urfga barham berildi.

— Shu hududga ishga kelganimga yigirma besh yil bo‘ldi, — deydi Yakkabog‘ tumanidagi Esat mahallasida joylashgan 66-oilaviy shifoxona bosh hamshirasi Ibodot Murodova.

— Mahallamizda birgina shu qishloqda ilgari yomon odat mavjud edi. Qishloqdagi oilalar juda yaqin qarindosh bo‘lsa-da, bir-biriga qiz uzatib, o‘g‘il uylantirib kelgan. Tug‘ma nogironlik bilan bog‘liq turli holatlar bitta emas, ko‘plab oilalarda kuzatilgan bo‘lsa-da, hech kim buning asl sababini o‘ylab ham ko‘rmagan.

Keyingi yillarda fuqarolarda tibbiy madaniyat ham ancha shakllanib qoldi. Bundan tashqari, patronaj hamshiralari bilan birgalikda doimiy ravishda aholi, ayniqsa, xotin-qizlar o‘rtasida aniq misollar asosida tushuntirishlar olib borilishi samara bermogda. Bugun Esatda qarindoshlar o‘rtasida quda bo‘lish holatlari uchramay qoldi. Buning natijasida farzandlar sog‘lom tug‘ilib, oilalar barqarorligi oshgan.

## Astoydil ishlash lozim

Mang‘itoy Haydarova Esat mahallasidagi kichik tibbiyot punktiga ishga kelganida hali yoshgina edi. U paytlari sharoit ham o‘ziga yarasha. Bemorlarga xizmat ko‘rsatish uchun imkoniyat yetarli emasd. Bitta o‘zi xonadonmazonadan yurib, odamlar dardiga quloq tutar, qo‘lidan kelgancha dardmandlarni davolashga intilardi. Odamlarni sog‘lom turmush tarziga rioya qilishga chaqirishni kanda qilmasdi.

Tibbiyot xodimlari yetishmasligi bois, biror yordamchi hamshira ham yo‘q edi. Shu sabab

uzoq vaqt bir o‘zi ishladi. Ko‘p qiyinchiliklarga duch kelsa-da, kasbiga sodiqligi bois, ishini tashlab ketishga urinmadi. Natijada qilgan mehnatlari nobatga olinib, 1997-yil 1-darajali “Sog‘lom avlod” ordeni bilan taqdirlandi. Mang‘itoy opa bugun yoshi yetmishga yaqinlashayotgan bo‘lsa-da, hamon aholiga xizmat ko‘rsatishdan charchagani yo‘q. Ayni paytda 66-oilaviy poliklinikaning tajribali vrachlaridan biri.

— Shu mahalladagi tibbiyot punktiga 1980-yil ishga kelganman, — deydi M.Haydarova. — Gohida o‘tgan ish davrimni tahlil qilib ko‘raman. Ba‘zi davrlar bo‘ldiki, sen shifokormisan, kasbing nima, deb so‘rab o‘tirishmadi. Mavsum boshlandimi, paxtaga, hasharga chiqish kerak. Mana, shukrki, bugun barchasi o‘z izmiga tushdi. Bunday dorilaman zamonda men bir chetda tomoshabin bo‘lib o‘tirolmayman. Shunday sharoitlar bor ekan, ishlamay bo‘ladimi? Axir bunday kunlarni qancha kutdik.

— Yaqinda prezidentimizning “Qashqadaryo viloyatida aholi salomatligini muhofaza qilish hamda sog‘liqni saqlash tizimini yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori e‘lon qilindi, — deydi Yakkabog‘ tumani Esat mahallasidagi 66-oilaviy poliklinikasi bosh shifokori Yusuf Rahmatov. — Qarorga asosan, viloyatimizda qator ishlar amalga oshirilishi belgilandi. Jumladan, yangi shifoxonalar qurish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish kabi vazifalar qo‘yilgan.

Poliklinika beshta mahallaga xizmat ko‘rsatadi. Bugun jami 78 nafar tibbiyot xodimi faoliyat yuritib kelmogda. Xodimlar alohida brigadalariga bo‘lingan holda doimiy ravishda aholi orasida targ‘ibot ishlarini olib bormogda. Hozir aholi to‘rt guruhga bo‘lingan, birinchi guruh — sog‘lom kishilar, ikkinchisi — past xavf guruhiga kiruvchilar, uchinchisi — o‘tta xavf guruh, to‘rtinchisi — yuqori xavf guruhlari. Sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik, sog‘lom turmush tarziga amal qilish natijasida pastki guruhdagilarni birinchi guruhga qo‘shishga harakat boshlangan. Natija esa yomon emas. Hozir ikkinchidan birga, uchdan ikkiga, to‘rtidan uchga o‘tayotganlar safi ortib bormogda. Buning uchun grafik asosida aholini qiziqitirgan holda o‘zgarishiga qarab, guruhlari o‘zgartirib borilmogda.

Qashqadaryo viloyati Sog‘liqni saqlash boshqarmasi mutasaddilarining ta‘kidlashicha, bugungi kunda Yakkabog‘ tumani Esat mahallasasi aholisi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi boshqa hududlarga o‘rnak bo‘lardi. Hududda shifokorlar tashabbusi bilan odamlar jismoniy faollik orqali davo topmogda. Aslida, biror so‘m xarajatsiz shifo topishning o‘zi katta foyda. Shunday ekan, siz ham sog‘lom turmush tarzi sari harakatni bugundan boshlang.

**Akbar RAHMONOY,**  
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri





